



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ODOB-AXLOQ
TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA MARKAZIY OSIYO
OLIMLARINING QARASHLARI**

Abdulkarimova Mehrangiz Suxrob qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi yo'nalishi
1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: (PhD) dots. U. B. Mattiyev

Annotatsiya.

Ushbu maqolada yosh avlodning ta'lim va axloqiy tarbiyasi tasnif etiladi. Osiyoda olimlarning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari allomalar asarlarida saqlanib qolgan. Xususan, O'rta Osiyo olimlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari Al-Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abdulla Avloniy kabi allomalar ijodida o'z ifodasini topgan. Bu allomalar ijodida yoshlar tarbiyasi, barkamol shaxsni tarbiyalash, tarbiyaning ma'naviy-axloqiy asoslari masalalari atroflicha tahlil etilgan. Bu allomalarning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Farzand – oila, jamiyat, millat kelajagi. Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasi muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo olimlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarining keskin o'zgarishi o'zaro hurmat g'oyalarida o'z ifodasini topadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, odob, axloq, mutafakkir, tarbiya, boshlang'ich sinf o'quvchilari.

Annotation.

This article offers education and moral upbringing of the younger generation. In Asia, scholars' views on education are preserved in the works of scholars. In particular, the views of Central Asian scholars on education are



reflected in the works of scholars such as Al-Farabi, Ibn Sina, Yusuf Khas Hajib, Alisher Navoi, Abu Rayhon al-Biruni and Abdulla Avloni. In the works of these scholars, the issues of youth education, the upbringing of a harmonious person, and the spiritual and moral foundations of education are analyzed in detail. These scholars' views on education are still relevant today. The child is the future of the family, society, and the nation. Therefore, the upbringing of the younger generation is important. A sharp change in the views of Central Asian scholars on education is reflected in the ideas of mutual respect.

Key words: primary education, morals and ethics, upbringing , scholars.

АННОТАЦИЯ.

В данной статье рассматриваются вопросы образования и нравственного воспитания молодого поколения. В Азии взгляды ученых на образование сохранились в трудах. В частности, взгляды центральноазиатских ученых на образование отражены в работах таких ученых, как Аль-Фараби, Ибн Сина, Юсуф Хас Хаджиб, Алишер Навоий, Абу Райхан Беруни и Абдулла Авлоний. В работах этих ученых подробно анализируются вопросы воспитания молодежи, формирования гармоничной личности и духовно-нравственных основ.

Ключевые слова: начальное образование, нравственность и этикет, воспитание, мыслитель

Kirish:Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim maktablarining ilk bo'g'ini, poydevori hisoblanadi. Bu davrda olingan bilim va ko'nikmalar inson hayotiy ko'nikmasining asosiy omilidir. Aynan ana shu bosqichda ta'lim oluvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish mustaqil fikrlash va mas'uliyat hissi shakllanadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalarning



axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari ham rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinf ustozining har bir aytgan so'zi va amaliy faoliyati o'quvchi shaxsining kamol topishida muhim ahamiyatga ega. Chunki, ilk ta'lim bosqichida olingan bilimda bolaning shaxs sifatida ulg'ayishi, uning axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvori bosqichma bosqich, asta sekinlik bilan rivojlanib boradi. Shu sababli ham dastlabki sinflarda beriladigan tarbiya ta'limning keyingi bosqichlari uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Asosiy qism: Ta'limni tarbiyadan tarbiyani ta'limdan ayirib bo'lmaganidek, ta'lim shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda tarbiya ta'limning asosida turishi shartligi barchaga ayon haqiqat. Ta'lim-tarbiya va bola bir-biridan ajralmas hodisa ekanligi hammamizga ma'lum. Bolaning komil shaxs bo'lib ulg'ayishida aynan ta'lim va tarbiya, axloq-odob asosiy o'rin egallaydi. Zero, "Axloq hamma joyda axloqdir, axloqsizlik esa hamma joyda axloqsizlik deya qaraladi". Tarbiya pedagogik shart-sharoit, mazmun va uslublar asosida amalga oshiriladi. Tarbiya jarayoni uzluksiz davom etadigan jarayon bo'lib, davrlar o'zgarishi va zamonlar o'tishi bilan u sayqallanib, rivojlanib, o'zining boy tarixiga ega bo'lib boradi. Tarbiya – bu o'quvchini umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida har tomonlama rivojlangan shaxsni kamolga yetkazishga yo'naltiruvchi jarayondir. Har bir o'quvchi kamoloti uning tarbiyasi go'zalligi, jamiyatdagi tutgan munosib o'rni, erishgan muvaffaqiyati, hayotiy ko'nikmalari bilan belgilanadi. Respublikamizda ta'lim sohasidagi islohotlar ertamiz egalarini har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib yetishishishiga xizmat qiladi. Kishilik jamiyatining rivojlanishi kelajak avlodning kim bo'lib yetishishi, ularning bilim saviyasi, madaniyati va tarbiyasiga bog'liq. Prezidentimiz tashabbusi bilan umumta'lim maktablarida joriy etilgan Tarbiya fani kelajak avlodni ajdodlarga munosib farzand bo'lib yetishishga, buyuk allomalar izdoshlari



bo'lib ulg'ayishlariga , vatan ravnaqi uchun bunyodkor avlod bo'lib tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tarbiya fani boshlang'ich ta'limdanoq zarur ekanligi, uning uzluksizligini ta'minlash muhim hodisa ekanligini bot-bot ta'kidlagan: "Ijtimoiy fanlar sohasida odob-axloq qoidalarini va ma'naviyatning oddiy tushunchalari va sodda talablarini boshlang'ich sinflardan o'rgata boshlashi zarurligi ayni haqiqat²". Shunday ekan tarbiya fanining boshlang'ich ta'limdanoq joriy etilishi, poydevorning yanada mustahkam bo'lishi, kelajak avlodning ajdodlar ruhi ila tarbiya topishi, vatanga sadoqat ruhida o'sishi va boshqa muhim vazifalarni bajarish bilan bog'liqdir. Tarixdan buyon,inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratib kelingan.Ayniqsa, Markaziy Osiyo buyuk mutafakkir olimlari o'z asarlarida ertamiz egalarini axloqan yetuk,ma'naviy barkamol shaxs etib tarbiyalash g'oyalarini olg'a surganlar. Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi allomalar o'z asarlarida kelajak avlodni ma'nan barkamol,axloqan yetuk qilib tarbiyalash masalalari chuqur ilmiy-falsafiy asoslab berilgan.Buyuk bobokalonlarimizning fikrlari, hikmatli so'zlari bugungi kunda ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida odob-axloq tushunchalarini tarkib toptirishda muhim metodik manbaa bo'lib xizmat qiladi. Tarbiya bu-tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga ma'lum belgilangan maqsad va g'oyalar asosida davomli, izchil ta'sir ko'rsatishdir. Axloq esa ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum qoidalar, xatti-harakatlar majmuidir.

Odob-kishining jamoat, insonlar orasida o'zini tuta bilishi, turmush tarzi, bo'sh vaqtini qay tarzda o'tkazishi, boshqalar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, odamning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi qanday bo'lishi lozimligi xususida bahs etadi. Aniqroq qilib aytganda, axloq kishining e'tiqodi, ichki, olami, xislatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob esa shaxsning



ko'zga yaqqol tashlanadigan muomalasi, mulozamati, fe'l-atvorida aks etadi. Har bir inson yangi bir olam bo'lgani kabi odob-axloqi ham o'zgacha bir murakkab olam desak xato qilmagan bo'lamiz. Odobli, tarbiyali, axloqli, komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: himmat, saxovat, saxiylik, hayo-yu iffat, mehr, muhabbat, adolat, shafqat, sadoqat kabilar mujassamdir. Ayni shu xislatlarning teskarisi esa axloqsiz, beburd kimsalarning fe'lida yaqqol seziladi. Har bir inson uchun axloq normalariga rioya qilish tabiiy va o'z-o'zidan ravshandir. Axloqiy xulq-atvor me'yorlarini hurmat qilmaydigan inson aslida, boshqa kimsalarni, shuningdek o'z madaniyati-yu jamiyatini ham hurmat qilmaydi. Odobli kishi o'zining ham, boshqalarning ham chegaralarini biladi. Axloqsizlik-majruhlik belgisidir³.

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib kabi qomusiy olimlar, keyinchalik Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, XX asr boshlarida esa jadidchi-ma'rifatparvarlar kabi ko'plab yurtdoshlarimizning pedagogik merosida bolani kichikligidan tarbiyalash, qiziqishlari va imkoniyatlariga qarab o'qitish, ta'lim-tarbiyada turli usullarni qo'llash g'oyalari ilgari suriladi. "Har bir kishini uning borlig'i va qobiliyatiga ko'ra o'qitish kerak. Aks holda ta'lim-tarbiya ko'zlangan natijani bermaydi" (Ibn Sino). "Har kimki ilm-hikmatni o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobli bo'lsin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, xiyonat, makr-hiyladan uzoq bo'lsin" (Abu Nasr Forobiy). Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmi va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlar tomonidan yaratilgan nodir asarlar yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo'lib yetishishiga undagan. Jumladan "Pandnoma", "Siyosatnoma", "Qobusnoma", "Axloqi muhsiniy", "Axloqi nosiriy", "Qonuni hikmat", "Hikoyati dilpisand", "Odob as solihin", "Turkiy Guliston yoxud axloq" singari asarlar. Tarbiyaga e'tiborsizlik va



uning oqibati haqida Abdulla Avloniy kuyunib, “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va 140 nashavandlar... kecha tarbiyalariga e‘tibor berilmagan bolalardir”, deb yozib qoldiradi.⁴

Ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy o‘z asarlarida tarbiyaga, axloqqa katta ahamiyat beradi. Bola tarbiyasida yashab turgan sharoit, atrof muhit va kattalarning roli salmoqli ekanini ko‘rsatadi va bu sohada oila, maktab sharoitini ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi. U oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddur va aksincha, oilada tegishli, tarbiya ishlari olib borilmasa, bu hol maktabning ta‘lim tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo‘yishni ta‘kidlaydi. Beruniy ijodiga nazar tashlasak, uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob as-Saydana», «Al Qonuni al-Mas‘udiy», «Geodeziya» va boshqa asarlarida axloqiy tarbiyaning muhimligini ta‘kidlaydi. U axloqiylikni yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi deydi. Insonning yaxshi orzusiga yetishida xalal beruvchi ziqnalik, yolg‘onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi. Insonning kamolotga erishishida uch narsani muhim deb hisoblaydi. Irsiyat, muhit, tarbiya insonning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilab beruvchi muhim omillar ekanligini alohida ta‘kidlaydi.

Ibn Sino bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalashda, birga o‘qitilishi va tarbiyalanishi kerakligini ta‘kidlab aytgan. Shuningdek, buyuk bobokalonimiz yakka o‘qitishga qarshi bo‘lgan. Guruh bo‘lib, jamoaviy tarzda bilim olishning foydali tomonini quyidagicha izohlagan: Agar o‘quvchi birga o‘qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqishi yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bolalar birga to‘planganlarida bir birini hurmat qila boshlaydilar, do‘stlashadilar, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘zaro fikr almashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar. Alisher Navoiy axloqni o‘z



asarlarida muhim me'zon deb hisoblaydi. U go'zal xulqni atrofdagi odamlar orasida hurmat qozonish uchun vosita sifatida aytadi. «Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi, - deydi adib. - Adab, kichiklarning mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' ko'rsatadi. Ularning yurish-turishini xalq ulug'vor biladi. O'ziga qarshi xalq tomonidan bo'ladigan hurmatsizlik eshigini bog'laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitishidan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yo'liga soladi va odam mizojiga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan muncha natija hosil bo'lgach, kattalarga allaqachon bo'lishini ko'rarsan. Adabdan muhabbatga bezak va pardozi yetadi, adab tarkidan do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozu do'stlik ko'zgusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug'lik yetkazadi. Tavozuli va adablilarga ta'zim va hurmat yetadi va u urug'ni ekan bu qimmatbaho hosilni to'plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning boshlang'ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o'rnashsa, muhabbatga xalal yetishi maholdir. Agar har ikki tomonda yaxshi xulq bo'lsa, adabi va tavozu evaziga ta'zim paydo bo'ladi».

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida odob-axloq tushunchalarini shakllantirish masalasi uzluksiz ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u shaxs ma'naviy kamolotining ilk hal qiluvchi bosqichini tashkil etadi. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchi yoshlarning ongiga singdirilgan asosiy tushunchalar, ularning keyingi ta'lim bosqichlari va ijtimoiy hayotdagi xulq-atvoriga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan Markaziy Osiyo olimlarining boy ma'naviy merosidan ta'lim jarayonida maqsadli, tizimli va uzviy ravishda foydalanish kelajak avlodda ijobiy axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, allomalarimizning axloqiy qarashlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida odob hamda axloq



tushunchalarini shakllantirish samaradorligini oshiradi. Shu sababli ham mazkur me'rosni o'quv darsliklarning mazmuniga singdirish, tarbiyaviy mashg'ulotlarda keng foydalanish, pedagoglar faoliyatida amaliy vosita sifatida qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Umumlashtirib aytganda, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy-pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xandamov Anvar Norovich, Shodmonova Abera Shodiyevna BOSHLANG'ICH VA UZLUKSIZ TA'LIM PEDAGOGIKASI .Toshkent-2024. 171-bet
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2021y. 224-bet
3. Бегматдулобович, М. У. (2020). Историческое освещение социально-экономической жизни афганских граждан в Туркестане (вторая половина XIX века–начало XX века). Международный журнал Orange Technologies, 2, 21-25.
4. Y. Rasulova, O. Nurmatova Pedagogika Toshkent -2014. 18-bet
5. Mattiev, U. B. (2019). The conquest of Turkestan and the coverage of the issue of its consequences in the historiography of the period of independence. ISJ Theoretical & Applied Science, 03 (71), 19-21.
6. Abdulla Avloniy Turkiy Guliston yoxud axloq Toshkent -2023. 9-bet
7. Begmatdulobovich, M. U. (2020). Historical Coverage of the Socio-economic Life of Afghan Citizens in Turkistan (the Second Half of the XIX



Century–the Beginning of the XX Century). International Journal on Orange Technologies, 2(11), 21-25.

8.Yulo Vooglayd Vatandoshlik dasturi Toshkent -2023. 51-bet

9.Mavlonova R., Xoliqberdiev K., To‘rayeva O. Pedagogika. –T., 2008. 271-bet